

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (5-jild)
2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urinbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich

TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O'RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN

OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR 12-17

Qurbonov Xurshid Raupovich

O'ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN

"MEHNAT ARMIYACHILARI" VA ULARNING TA'MINOTI 18-22

Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI 23-28

Abbasov Behzod Baxtiyorovich

FARG'ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO'JALIKLARDA IJTIMOIIY

MUAMMOLAR VA KO'CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI

(1946-1965)..... 29-35

Mirzaliyev Ulug'bek, Klichev Ulug'bek

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR 36-39

Tursunova Gavhar Begmuradovna

ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN

MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI

(XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI) 40-50

Vaxobov Doston Abdumannob o'g'li

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG'LIQNI SAQLASH

XODIMLARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI 51-54

Sodiqova Yulduzxon Maxamat qizi

O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR

(1991-2024 yy)..... 55-59

Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich

QUYI SIRDARYOBO'YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK

TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI 60-64

Yo'ldosheva Gulbahor Nuriddinovna

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING

AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI

(QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA)..... 65-69

Mardiyeva Guzal Karimovna

XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI

ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNINI 70-75

Narziyev Rustambek Xaydarovich

HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN

YARATILGAN IMKONIYATLAR 76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i> O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA IPAKCHILIKNING O'RNI	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i> O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI	93-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i> BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i> «ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i> ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i> TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i> SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i> XORIJIY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI TAHLILI (ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA)	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i> O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA INSON KAPITALINING TA'SIRI	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i> “QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH	165-169

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Komilov Ro'zi Rabiyeovich</i> OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY OMILLARNING FALSAFIY TAHLILI	170-172
<i>Хакимов Эркин</i> ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i> SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI.....	181-185
<i>Karimov Yo'ldosh Ergashevich</i> TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI	186-191

<i>Azzamxodjaeva Shaxnoza Saiddmatmabovna</i> О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	197-204
<i>Evatov Salimjon</i> MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i> ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i> IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julanovna</i> "IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i> FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT	224-231
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i> O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ	237-243
<i>Usmanova Sevara</i> INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA.....	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i> MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i> ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i> PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i> VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i> COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION.....	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhribonu</i> THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS.....	282-285

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Xodjiev Yunus Muxitdinovich

DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR
TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 286-292

Wang Cong

RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION 293-300

Лу Адук

К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ 301-310

Abdurashidova Zarina Turg'un qizi

FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARNING
NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI 311-315

Axmatov Olimjon Odilovich

“KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF
RAVISHDA Olish, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY
XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI Olishda SUN'IY INTELLEKTNING
O'RNI” 316-322

Xatamov To'liqin Tojiddinovich

KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI
TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING
NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI 323-329

Kuchimova Shaxlo

VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI 330-337

O'rinova Dilshoda Adhamovna

OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI
HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDAGI AYOLLAR JABRLANISHINI
OLDINI Olish BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI 338-347

Geng Zhimin

RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT..... 348-351

Xidirov Mexroj Qilich o'g'li

ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK
JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON
BERUVCHI OMILLAR 352-357

Тулаганов Элмурод

ВОПРОСЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ
ТРАНСФОРМАЦИИ 358-367

Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon

DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI
SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI 368-374

Abbosov Mirsulton Mirsharof o'g'li

JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING
IJTIMOIY XAVFLILIGI 375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i> DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR	383-392
<i>Kamilov Oybek</i> O'ZBEKISTONNING MIGRATSIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJIY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	393-402
<i>Абборова Камола Саидмухторовна</i> ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i> RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i> "HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'IY INTELEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALARI"	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i> INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK ASOSLARI	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i> KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i> YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i> "IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI	458-463

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> "JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i> EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJIY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i> ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i> FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYYATI	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEKANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i> ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ	497-501

Received: 16 March 2025

Accepted: 5 April 2025

Published: 15 April 2025

Article / Original Paper

THE THEORY OF ETHIMOLGY AND TEACHING MATHEMATICAL STATISTICS IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS: FOREIGN EXPERIENCE AND SCIENTIFIC APPROACHES

Yusubjanova Musharraf

Basic doctoral student NamSU

Abstract. This article presents the experiences of foreign countries (Singapore, Japan, the USA, and Russia) in teaching the section on probability theory and mathematical statistics in general education schools, including the analysis of curricula and scientific results. The results of international assessment systems, PISA and TIMSS, demonstrate the importance of this subject in developing students' logical thinking and statistical reasoning, which enhances the relevance of this research.

Keywords: probability theory, mathematical statistics, curriculum, logical thinking.

EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJIY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR

Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi

NamDU tayanch doktoranti

E-mail: Yusubjanovam271994@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola ehtimollar nazariyasi va matematik statistika bo'limini umumta'lim maktablarida o'qitish bo'yicha xorijiy (Singapur, Yaponiya, AQSh va Rossiya) davlatlarning tajribalar: o'quv dasturlari, ilmiy natijalari tahlili keltirilgan. Xalqaro baholash tizimlari PISA va TIMSS natijalari ushbu fanning o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va statistik tafakkurini rivojlantirishda muhimligini ko'rsatishi ushbu tadqiqotni dolzarbligini oshiradi.

Kalit so'zlar: ehtimollar nazariyasi, matematik statistika, o'quv dasturi, mantiqiy fikrlash.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N70>

Kirish. Piaget va Inhelder (1951) tomonidan olib borilgan dastlabki tadqiqotlarda bolalarning ehtimollikni mantiqiy ravishda o'ylashdagi rivojlanish bosqichlarini o'rganib chiqqan. Boshqa ko'plab psixologlar esa bu tadqiqotlarni davom ettirib, eng muhimlaridan biri Fischbein (1975) bo'lib, u stoxastik intuitsiyalarni tahlil qilgan va erta ehtimollikni o'rgatishni tavsiya qilgan[1]. Ya'ni bolalarda tasodifiy hodisalar bilan muqarrar hodisalar farqini ajrata olish 3-4 yoshdan boshlanadi. 5 yoshdan esa tasodifiy xulosalarni baholashning imkoniyatlarini tushunish, ya'ni ehtimolli fikrlash rivojlanadi. Shuning uchun ham XXI asr maktab matematika ta'limining modernizatsiyasidagi asosiy yo'nalishlardan biri – ehtimollar nazariyasi va matematik statistika materiallarini umumiy o'rta ta'lim matematika kursiga kiritishdir[2]. Matematika ta'limida ehtimollar nazariyasi va matematik statistika mavzulari o'quvchilarning hayotiy masalalarni hal qilishdagi tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va qarorlar qabul qilishda statistik ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Maktab ta'limida ehtimollar nazariyasini o'qitish quyidagi ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi:

- Muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish, statistik ma'lumotlarni tushunish va tahlil qilish.
- Noaniqlik sharoitida asosli qarorlar qabul qilish, hayotiy vaziyatlarda matematik va statistik tafakkurni qo'llash.

Matematika ta'limining muhim qismi bo'lgan ehtimollar nazariyasi va matematik statistika elementlari bugungi kunda rivojlangan davlatlarning umumta'lim maktablarida keng o'qitilmoqda. Matematika ta'limidan olingan tadqiqotlarga ko'ra, ehtimollikni maktab darajasida o'qitish davomida o'ziga xos muammolar paydo bo'lmoqda, chunki bu matematikaning faqat noaniqlik bilan shug'ullanuvchi sohasidir. O'qitish va o'rganish muammolari, texnologiya va resurslar bilan bir qatorda, matematika o'qituvchilarini tayyorlashga ham e'tibor qaratish muhim vazifaga aylanmoqda. Xalqaro baholash tizimlari, jumladan PISA va TIMSS natijalari ushbu fanlarning o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va statistik tafakkurini rivojlantirishdagi o'rnini ko'rsatmoqda (OECD, 2023). Bu esa umumta'lim maktablarida ushbu fanning o'qitilishi zarurligini va yangicha yondashuvlar asosida o'qitish kerakligi anglatadi. Bularning barchasi esa tadqiqotimizni dolzarbligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bolalarda ehtimollik tushunchasini shakllanishi haqida turli tadqiqotlar mavjud bo'lib, 12 yoshgacha bolalarda uning shakllanishini quyidagi mavzularga bo'lib o'rganishgan: ehtimollikni sezish- bolalar 3-4-yoshdan tasodifiy holatlarni farqlashni boshlaydi, 7 yoshdan esa tasodifiy miqdorlar natijalarini bashorat qilishni tasavvur qiladi; ehtimollik tili- bolalar 7-8 yoshdan ehtimoli tildan foydalanadi; kombinatorik fikrlash-tasodifiy tajribalarda va ehtimollikda muhim va ehtimollikni taqqoslash va baholashni 7-8 yoshdan tushunishni boshlaydilar[1]. Ehtimollikni erta yoshdan o'qitishda o'qituvchilarning bilimlarini tahlil qilish uchun model yaratilgan bo'lib, ushbu model besh asosiy jihatni o'z ichiga oladi[3]:

1. Ehtimollik bilan bog'liq topshiriqlar,
2. Ehtimollik tafakkuri,
3. Ehtimollik aloqalari,
4. Ehtimollik muloqot,
5. Ehtimollik tili.

Bu model orqali o'qituvchilarning ehtimollikni samarali o'qitishi, unga doir tushunchalarni o'quvchilarga ko'proq yetkaza olishi ta'minlanadi. o'quvchilarning ehtimollar nazariyasi bo'yicha mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan har qanday yaxshi o'quv dasturining muvaffaqiyati ham o'qituvchilarning ehtimollikni tushunish darajasiga bog'liq [4]. Avvalo matematika fanini yaxshi o'qitish va o'quvchilarni bu fanga qiziqitira olish matematika o'qituvchilaridan ulkan pedagogik mahorat va o'z ustida doimiy ishlashni talab qiladi. Shuningdek, bu jarayonga matematika darsligi ham katta ta'sir ko'rsatadi [5]. Matematika darsligi matematika bilan bog'liq bo'lgan masalalarni, tasavvurlar, tushunchalarni tartibga soladi va matematika fanini o'qitish jarayonida asosiy nuqta hisoblanadi [6]. Hozirda matematika darsliklarini tahlil qilganimizda ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaga doir mavzular va tushunchalar ketma-ketligida izchillik yo'qligi, rivojlantiruvchi va hayotiy masalalarning yetishmasligi, standart masalalar bilan cheklanish kabi kamchiliklarga duch kelamiz [7]. Haqiqatdan ham ushbu kamchiliklar bu fanni o'zlashtirilish darajasini

pasaytirmoqda. Ammo so'nggi yillarda interfaol ta'lim texnologiyalari va yangi uslubiy yondashuvlar paydo bo'lishi bilan ehtimollar nazariyasi va matematik statistika o'qitilishida sezilarli yangiliklar kuzatildi[8]. Masalan, amaliy masalalarni yechishni 2 xil usulini taklif qilgan. O'quvchilarni tasodifiylilikni idrok qilishi va yutish strategiyasi va ehtimolli o'yin [9].

Ushbu tadqiqotda qo'yilgan maqsadga erishish va vazifalarni hal qilish uchun bir nechta tadqiqot usullaridan foydalanildi: Mavjud adabiyotlar bilan tanishish, ya'ni adabiyotlar sharhi, tadqiqot bo'yicha mavjud ilmiy maqolalar, tadqiqotlar, kitoblar va boshqa nashrlarning keng tahlili. Ya'ni bu sohada erishilgan yutuqlar va natijalar, tendensiyalar, usullar va tadqiqotlar haqida umumiy ma'lumot olish. Bundan tashqari tadqiqotda darsliklarni yig'ish, tahlil qilish, solishtirish metodlaridan foydalanilgan. Bu metodlarning maqsadi to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish, baholash va xulosa chiqarishdan iborat. Tadqiqot Singapur, Yaponiya, AQSh va Rossiya davlatlarining matematika darsliklarini o'z ichiga oladi. Singapurning 7-sinfidan 10-sinfgacha, Yaponiya, AQSh va Rossiyaning esa 7-sinfidan 11-sinfgacha bo'lgan matematika darsliklaridan foydalanilgan. Singapur darsliklaridagi mavzularni quyidagilardan olingan the Singapore New Syllabus Mathematics (NSM) grades 7-10, written by Dr Joseph Yeo PhD, MEd, PGDE (Dist), BSc (Hons), Teh Keng Seng BSc, Dip Ed, Loh Cheng Yee BSc, Dip Ed, and Ivy Chow MEd, PGDE, BSc. Yaponiya davlatining matematika fanidan o'quv rejalarini <https://www.futureschool.com/japan-curriculum/#552f669b605a0> saytidan olingan. AQSh davlatining Kaliforniya shtatining matematika fanidan o'quv dasturlarini <https://www.ixl.com/standards/california/math> saytidan olingan ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Rossiyaning matematikadan o'quv rejalarini quyidagi darsliklardan olingan: Макарычев Ю.Н., Миндюк Н.Г., Нешков К.И. и др. Алгебра 7-класс ва 9-класс учеб, Рубин А.Г., Чулков П.В. Алгебра 8-класс учеб, Муравин Г.К. Муравина О.В. Алгебра и начала математического анализа 10-класс учеб, Мерзляк А.Г. Номировский Д.А. Поляков В.М. Алгебра и начала математического анализа 11-класс учеб.

Muhokama. Matematika ta'limida ehtimollar nazariyasi va matematik statistika mavzulari o'quvchilarning amaliy masalalarni hal qilishdagi mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va qarorlar qabul qilishda statistik ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu mavzularni o'rgatishning didaktik asoslari ta'lim jarayonining maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va baholash mezonlarini aniqlaydi. Quyida esa shular asosida Singapur, Yaponiya, AQSh va Rossiya davlatlarining matematika darsliklarini tahlil qilingan:

1 Singapur Tajribasi. Singapurda ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaga katta e'tibor beriladi. O'quv dasturlari spiral tamoyiliga asoslangan bo'lib, mavzular turli sinflarda takroran chuqurlashib boradi [10]. Matematika darsliklarida misol va masalalar 3 xil: oson, o'rtacha va qiyin kategoriyalarda beriladi. Har bir bo'lim oxirida "o'zingni sinab ko'r" mashqlari orqali o'quvchilar bilimlari mustahkamlab boriladi.[5]

2 Yaponiya Tajribasi. Yaponiyada matematika darslari PISA baholarida yuqori natijalarga erishish uchun maxsus metodikaga asoslangan. Har bir sinf matematika darsligi 4 ta bo'limdan iborat bo'ladi. Har bir bo'limda o'quvchilar yangi mavzularni yaxshi tushunishga qaratilgan boyitish va amaliy masalalar beriladi [5]. O'quvchilarga o'zlari mustaqil ravishda statistik natijalarni tahlil qilishga yo'naltirilgan topshiriqlar beriladi [11].

3 AQSh Tajribasi. AQShda ehtimollar va statistikaning o'qitish davlat ta'lim standartlarida aniq belgilangan. AQSh (Kaliforniya misolida) matematika darsligida har bir mavzu oldidan shu

mavzu bo'yicha davlat standartlar aytib o'tiladi keyin qisqacha mavzu bayoni beriladi. Hayotiy misol-masala ishlash namunasi va qo'shimcha mustahkamlovchi misollar beriladi[12]. O'quvchilarning mantiqiy va statistik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun interaktiv metodlar keng qo'llaniladi [13].

4 Rossiya Tajribasi. Rossiyada ehtimollar nazariyasi va matematik statistika fani 7-11-sinflar doirasida o'qitiladi. Rossiya matematika darsliklarida mavzular ancha keng yoritiladi. Mavzularga doir misollarni yechilishi asoslab tushuntiriladi. Mustahkamlovchi turli-tuman, amaliy mashqlar beriladi. O'quv dasturida kombinatorika va statistik inferensiya asoslari keng o'rin olgan [14]. O'qituvchilar uchun maxsus metodik qo'llanmalar ishlab chiqilgan.

Natijalar. Yuqoridagi davlatlarda ta'lim sohasi yuqori darajada takomillashgan bo'lib, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika elementlarini o'qitish bo'yicha ilg'or tajriba mavjud. Chunki ehtimollar nazariyasi va matematik statistika fani ko'plab sohalarga tatbiqi bo'yicha zamonaviy matematika fanlari orasida oldingi o'rinlarni egallaydi. Bu esa barcha sohalardagi ilmiy yangiliklarni asosi demakdir. Bundan tashqari umumta'lim maktablarida o'qitishning zarurligini isbotlovchi quyidagi sabablarni ham sanab o'tish zarur:

1. Tahliliy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish;
2. Hayotdagi amaliy ahamiyati;
3. Kelajakda ilg'or o'rganish uchun poydevor;
4. Raqamli asrda ma'lumotlar savodxonligi;
5. Fanlararo o'qitishni qo'llab-quvvatlash;
6. Xalqaro ta'lim standartlariga moslik.

Xulosa. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika xalqaro ta'lim tizimlarida muhim fanlardan biri bo'lib, rivojlangan davlatlarda u zamonaviy usullar bilan o'qitilmoqda. Masalan, interaktiv dars usullari, muammoli ta'lim, loyihaga asoslangan ta'lim va tajriba asosidagi yondashuvlar keng qo'llanadi. O'zbekiston umumta'lim maktablarida esa ushbu fanni o'qitish tajribasini xorijiy metodikalar bilan boyitish zarur. Bundan tashqari fanni o'qitishni yanada yaxshilash uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur. Fanlararo yondashuvni kengaytirish – ehtimollar nazariyasini iqtisodiyot, informatika va tabiiy fanlar bilan bog'lash; Interfaol ta'lim metodlarini joriy qilish – muammoga asoslangan ta'lim (PBL) va rolli o'yinlardan foydalanish; O'qituvchilar malakasini oshirish – ehtimollar nazariyasi va statistikani o'qitish bo'yicha maxsus kurslar va seminarlar tashkil etish; Raqamli texnologiyalar va dasturiy vositalardan foydalanish – GeoGebra, Desmos kabi onlayn platformalardan foydalanish.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Carmen Batanero, Rocío Álvarez-Arroyo. *Teaching and learning of probability*. ZDM – Mathematics Education (2024) 56:5–17 <https://doi.org/10.1007/s11858-023-01511-5>
2. M.Barakayev and others. *Methodology of teaching theory of probability and elements of mathematical statistics with the help of practical problems* Tuijin Jishu/ Journal of propulsion technology. Vol. 44. No. 6(2023). p 2712-2718.
3. Vásquez, C.; Alsina, Á. *Analysing Probability Teaching Practices in Primary Education: What Tasks Do Teachers Implement?* Mathematics 2021, 9, 2493. <https://doi.org/10.3390/math9192493>
4. Elbehary, S. G. A. (2022). *Rethinking mathematics teachers' professional knowledge for teaching probability from the perspective of probabilistic reasoning: A proposed framework*. International Electronic Journal of Mathematics Education, 17(3), em0695. <https://doi.org/10.29333/iejme/12145>

5. Khilyatul Auliya, Djamilah Bondan Widjajanti. "Singaporean and Japanese Maths Textbooks: Character, Structure, and Content". Mosharafa: Jurnal Pendidikan Matematika Volume 12, Number 1, January 2023 155-168-b.
6. Rezat, S. & Sträßer, R. (2015). Methodological issues and challenges in research on mathematics textbooks. *Nordic Studies in Mathematics Education*, 20(3-4), 247–266.
7. T.S.Nishonov [Principles of improving student's problem-solving skills in the field of probability theory](#). *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol 8 (9)-2020. 197-204-p.
8. Batanero, C., & Chernoff, E. J. (2020). *Teaching and Learning Stochastics: Advances and Challenges*. Springer. ISBN: 978-3030384383.
9. Carmen Batereno, Juan D. Godino, Rafael Roa (2014) "Training Teachers to teach probability" *Journal of Statistics Education*-March (2014). <https://www.researchgate.net/publication/240359028>
10. Ng, K. E. D. (2018). *Mathematics Education in Singapore: New Research on Teaching and Learning*. Springer.
11. Fujita, T. (2017). *Teaching probability with visualization tools: An international perspective*. *Educational Studies in Mathematics*, 94(3), 345-362.
12. California mathematic student textbook 7 . California standard- Driven program
13. Garfield, J., & Ben-Zvi, D. (2018). *Developing Students' Statistical Reasoning: Connecting Research and Teaching Practice*. Springer.
14. Batanero, C., & Borovcnik, M. (2016). *Probabilistic Thinking: Presenting Plural Perspectives*. Springer.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).